

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKIL ETISH ASOSLARI

Uzun Nozima<sup>1</sup>

*Oriental universiteti*

### KEYWORDS

kichik biznes, xususiy  
tadbirkorlik, moliyalashtirish,  
innovatsiya, iqtisodiy siyosat,  
O'zbekiston, kredit,  
tadbirkorlik muhiti.

### ABSTRACT

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, moliyalashtirish mexanizmlari hamda innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurati yoritilgan. Muallif O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga oid siyosiy-huquqiy asoslar, mavjud muammolar va xorijiy tajribalar asosida takliflarni tahlil qilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jahonda kichik biznes sub'ektlarini boshqarishni yanada takomillashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, «kichik biznes dunyo bo'ylab bandlikning 50 foizini ta'minlaydi, global kichik va o'rta biznesni kreditlash darajasi Sharqiy Osiyo va Tinch okeanida 46 foizni, Lotin Amerikasi va Karib havzasi 23 foizni, Yevropa va Markaziy Osiyo 15 foizni tashkil etadi»<sup>2</sup>. Kichik biznes sub'ektlarini boshqarishni innovatsiyalar asosida takomillashtirish banklarda xizmatlar sifatini oshirish, raqobatni ta'minlash, sifatli mahsulot va xizmatlarni yetkazishni taqozo etmoqda. Jahonda kichik biznes sub'ektlarini innovatsiyalar asosida kreditlashni takomillashtirish va ularni qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan ilmiy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berish orqali kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashni innovatsiyalar asosida takomillashtirish asosida yangi o'rinlari yaratish, aholining turmush tarzini yaxshilash, real daromadlarini oshirish va ish bilan bandligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Respublikada «mamlakatni innovatsion rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar asosida rivojlantirish strategiyalarini

<sup>1</sup> Oriental universiteti magistranti

<sup>2</sup> [World Bank SME Finance](https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance) <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>.

ishlab chiqish»<sup>3</sup>, «kichik va o'rta biznes sub'ektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lami va sifatini, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatish orqali oshirish»<sup>4</sup> vazifalari belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda kichik biznes sub'ektlarini moliyashtirishni takomillashtirish borasidagi imkoniyatlarini yanada oshirish dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizda tadbirkorlikni turli mulkchilik shakllariga keng imkoniyatlar yaratib berilgan bo'lib, buni qonuniy asoslari ham yaxshi shakllantirilgan. Fuqarolarning o'z mulkiga o'zi egalik qilishi va tadbirkorlikni rivojlantirishi bilan bog'liq huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Zotan davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 36-moddasida - har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi»<sup>5</sup> deb yozib qo'yilgan. Konstitutsiyada kafolatlangan mana shu huquq mamlakatimiz aholisining iqtisodiy faol qismini, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga, o'z xohishi bilan tavakkalchilik qilib, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni ayirboshlash orqali insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, ularning turmush tarzini yanada boyitishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz fuqarolarining tadbirkorlik bilan bog'liq huquqlari va tadbirkorlik tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»<sup>6</sup>gi Qonunida bayon qilingan bo'lib, uning 3-moddasida «Tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat»<sup>7</sup> deya izohlangan.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va uning raqobatbardoshligini ta'minlashda kichik biznes korxonalari faoliyati muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mamlakatimizda kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlar faollik bilan amalga oshirilib kelinmoqda.

Rivojlangan davlatlar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari tadqiq qilinganda, kichik biznes hamda tadbirkorlikni boshlash va yuritish uchun pul mablag'lari asosiy element ekanligi oydinlashdi. Albatta, barcha ishlarimizni amaliyotga kiritishimiz uchun bizga moliyaviy ta'minot zarur bo'ladi. Asosiysi pul mablag'lari manbasi ishonchliligi, shuningdek

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 01.04.2021 y.

<sup>4</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmon. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 12.05.2020 y.

<sup>5</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

<sup>6</sup>O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 18-son, 201-modda.

<sup>7</sup><https://lex.uz/docs/2006789> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012 yildagi O'RQ-328-son

oson olinishidadir.

Kichik biznesni yana bir muhim ijtimoiy-iqtisodiy xususiyati nisbatan kam harajatlar evaziga yangi ish o'rinlari yaratish va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo'shishi hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes turli ijtimoiy guruxlar daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni sarmoyadorlik darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirishga, iqtisodiyot turli sektorlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustaxkamlashga fuqarolar o'rtasidagi mulkiy farqlarni kamaytirishga o'z hissasini qo'shadi. Davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishining ko'rsatkichlarida biri shu davlatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. «Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko'payib borishi esa, o'z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi»<sup>8</sup>. «Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 54,9 foizni»<sup>9</sup> tashkil etmoqda. Lekin, shunga qaramasdan rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznes korxonalarini kreditlashda katta tafovut saqlanib qolmoqda. Xususan, «kam daromadga ega davlatlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari, odatda mamlakatning jon boshiga to'g'ri keladigan daromadining taxminan 50 foizini kompaniya ochish uchun sarflasa, yuqori daromadga ega davlatlarda bu ko'rsatkich atigi 4,2 foizni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda katta yoshdagi aholining kredit reestrda o'rtacha qamrovi 3 foizdan kam, yuqori daromadli mamlakatlarda esa 22 foizdan ortiqni tashkil etadi»<sup>10</sup>. Biz biznes rivoji bilan shug'ullanadigan davrda yashayapmiz, bu esa biznes uchun beriladigan kreditlar sonini ko'rsatadi.

Shuningdek, mamlakatimiz rahbari «...biz hozirgi global pandemiya davrida aholi sog'ligini muhofaza qilish, jumladan, tadbirkorlarni o'z muammolari girdobiga tashlab qo'ymaslikni asosiy maqsadlarimizdan biri sifatida ko'ramiz. Chunki, har bir tadbirkorlik tuzilmasi ortida qancha-qancha insonlarning ish o'rni, oilalarining daromadi, bugungi va ertangi taqdiri turibdi. Yangi O'zbekistonda kichik va xususiy biznes subyektlari soni keyingi paytda ikki barobar ko'paydi, ushbu tarmoqdagi 50 foizdan ziyod korxonalar faqat keyingi uch yilda tashkil etilgan. Bu esa mamlakatimizda muhim ijtimoiy qatlam – o'rta sinfni kuchayishi uchun puxta zamin bo'lmoqa»<sup>11</sup> deb takidlashlari tadbirkorlik subyektlarining rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratilayotganligidan dalolat beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik haqida so'z yuritishdan oldin ushbu iqtisodiy tushunchalarga ta'rif berib aniqlik kiritib olishimiz kerak bo'ladi.

<sup>8</sup> <https://tfi.uz/storage/doc-pages/220/original/88498119d5209420db8b85a7bc56f89276fa202d30e7.pdf>

<sup>9</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hisobotlari. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.


<sup>10</sup> <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/alternative-data-transforming-sme-finance>

<sup>11</sup> «Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston gazetasi bosh muharriri S.Doniyorovning savollariga javoblari. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi №165 17.08.2021 y.

Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati to'g'risida yagona ilmiy ta'rifga kelingani yo'q. Masalan, A. Busigin xususiy sektorga foyda (daromad) olish maqsadidagi iqtisodiy faollikning maxsus turi sifatida ta'rif beradi. Bu faoliyatining maqsadi deb, shunday tovarni ishlab chiqarish va sotishni tushunadiki, u bozorda talabga ega bo'lib, tadbirkorga foyda keltirishi lozim bo'lsin.<sup>12</sup> U kichik biznesni iqtisodiy faol soha deb hisoblab, buning asosini foyda olishga yo'naltirilgan maqsadli faoliyat, tadbirkorlik faolligini esa, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo'yicha faoliyatning o'zini tushunish tarzida ifodalaydi. Natijada, kichik biznes tushunchasining mazmuni bozorda talabga ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha maqsadli faoliyatni anglatadi.

---

<sup>12</sup> Бусыгин А.В. Предпринимательство, начальный курс. М.: НИРП. 1992, 17-б.



### Kichik biznes korxonalarining afzalliklari<sup>13</sup>

Yurtimizda kichik hamda o'rta korxonalar sektori «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik»<sup>14</sup> deb ifodalanadi.

<sup>13</sup> Adabiyotlarda keltirilgan manbalar asosida magistrant ishlanmasi

<sup>14</sup> <https://lex.uz/docs/2006789> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012 yildagi O'RQ-328-son

**Mamlakatda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik xodimlari klassifikatsiyasi<sup>15</sup>**

| №   | Nomlanishi                                                                                            | Xodimlarning o'rtacha yillik soni |                   |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------|-------------------|
|     |                                                                                                       | Mikrofir-malar                    | Kichik korxonalar |
| 1.  | Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari                                                 | 1-20                              | 21-50             |
| 2.  | Tog'-kon va karerlar bilan ishlash sanoati                                                            | 1-20                              | 21-50             |
| 3.  | Xom ashyoni qayta ishlash sanoati                                                                     | 1-20                              | 21-200            |
| 4.  | Elektr ta'minoti, gaz tarqatish, bug' va havoni sovitish tizimlari bilan ishlovchi korxonalar         | 1-20                              | 21-50             |
| 5.  | Suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni to'plash va utilizatsiya bilan shug'ullanuvchi korxonalar | 1-20                              | 21-50             |
| 6.  | Qurilish korxonalari                                                                                  | 1-20                              | 21-200            |
| 7.  | Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari                                                                | 1-5                               | 6-25              |
| 8.  | Turar joyi va umumiy ovqatlanish korxonalari                                                          | 1-10                              | 11-25             |
| 9.  | Aloqa xizmatlari korxonalari                                                                          | 1-10                              | 11-100            |
| 10. | Moliya va sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar                                               | 1-20                              | 21-100            |
| 11. | Ko'chmas mulk bilan shug'ullanuvchi korxonalar                                                        | 1-10                              | 11-25             |
| 12. | Ilmiy tekshirish institutlari                                                                         | 1-20                              | 21-50             |
| 13. | Boshqaruv va yordam ko'rsatish tashkilotlari                                                          | 1-20                              | 21-50             |
| 14. | Ta'lim                                                                                                | 1-20                              | 21-50             |
| 15. | Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar                                                               | 1-10                              | 11-25             |
| 16. | San'at va ko'ngil ochar dam olish maskanlari                                                          | 1-20                              | 21-100            |
| 17. | Xizmatlarining boshqa turlarini ko'rsatuvchi korxonalar                                               | 1-10                              | 11-25             |


1-jadval ma'lumotlariga ko'ra kichik biznes subyektlari tarkibiga «yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi»<sup>16</sup>. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-son «Iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro tansinflash tizimiga o'tish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»<sup>17</sup>gi Qarori asosida «kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning tasniflanishi bilan tartibga solinadi va faqatgina bitta «Xodimlar soni» mezonini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda «o'rta biznes» segmenti mavjud emas»<sup>18</sup>.

<sup>15</sup> Muallif hisob-kitobi (<https://lex.uz/docs/3019918> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-sonli Qarori asosida).

<sup>16</sup> <https://lex.uz/docs/2006789> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.05.2012 yildagi O'RQ-328-son

<sup>17</sup> <https://lex.uz/docs/3019918> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-sonli Qarori.

<sup>18</sup> <https://lex.uz/docs/3019918> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-sonli Qarori.



### Korxona tadbirkorlik faolligi ko'rsatkichlari tizimi<sup>19</sup>

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.O'lmasov va M.Sharifxo'jaevlar kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati mohiyatini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlarida "tadbirkorlik faqat pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olish omilidir"<sup>20</sup> deb ta'kidlaydilar. Ya'ni, tadbirkorlik subyektlari faoliyati bu daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat sanalib, agar u muntazam ravishda faollashmasa, milliy iqtisodiyotda o'sish sur'atlari qayd etilmasligini, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror rivojlanish yuzaga kelmasligini asoslagan holda ular aynan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining sifat jihatiga e'tibor berishni lozim deb hisoblashgan.

Taniqli iqtisodchi S.S.G'ulomovning "Tadbirkorlik va kichik biznes" nomli o'quv qo'llanmasida tadbirkorlik muhitiga ichki va tashqi omillarning ta'siri va ularning o'zgaruvchanligi to'g'risida qisqa fikr berilgan<sup>21</sup>.

Kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari mohiyatini yoritishda Q.Muftaydinov «Kichik biznes korxonalari iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste'mol talablarini e'tiborga olgan holda, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi»<sup>22</sup> deya ta'kidlab o'tgan. Shu jihatdan kichik biznes korxonalari iqtisodiy faollikni oshirishga hamda iqtisodiyotnig tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy iqtisodchi olim M.Yunus o'z tadqiqotlarida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida ijtimoiy samaraning ustuvorligini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bunday korxonalarni kreditlashda asosiy urg'u ularning jamiyatga foydali ta'siriga, ya'ni bandlikni oshirish, kambag'allikni kamaytirish kabi ijtimoiy omillarga qaratilishi kerak. Olimning fikricha, korxonalar moliyaviy jihatdan

<sup>19</sup> O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.:Mehnat, 1999. B. 240.

<sup>20</sup> O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Mehnat, 1995. 192 b.

<sup>21</sup> G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. -T.: TDAU, 1998.

<sup>22</sup> Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari: Dis. avt. ref... iqt. fan. d-ri. T., 2004. 18 b.

barqarorlashganidan so'ng, ular bozor stavkalarida kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladilar va bunga talab ortadi.

F.Allen va D.Gale esa kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda ikki asosiy model – bank tizimiga tayanilgan model hamda moliyaviy bozorlarga asoslangan model mavjudligini ilgari surishadi. Ularning nuqtai nazaricha, ayniqsa, bank tizimiga asoslangan model o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar sharoitida ko'proq mos keladi. Sababi, ushbu davlatlarda kichik biznes korxonalari moliyaviy resurslarni qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb qilish imkoniyatiga deyarli ega emas. Natijada, banklar – xususan tijorat banklari – moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib qolmoqda.

Bu fikrlar, ayniqsa O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Chunki iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznesga kredit resurslari taqdim etishda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy mezonlarni uyg'unlashtirish ehtiyoji ortib bormoqda.

A.Busigin tadbirkorlikni «foyda olish maqcadidagi iqtisodiy faollikning maxcuc turi sifatida ta'riflab, tadbirkorlik faoliyatining maqcadini deb, shunday tovarni ishlab chiqarish va sotishni tushunadiki, u bozorda talabga ega bo'lib, tadbirkorga foyda keltirishi lozim. U tadbirkorlikni yangi narcani yaratish jarayoni sifatida, tadbirkorni ega bularning barchaciga zaruriy vaqt va kuch sarflovchi, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy tavakkalchilikni zimmasiga oluvchi, evaziga pul va erishgan muvaffaqiyatdan qoniqish hosil qiluvchi inson»<sup>23</sup> sifatida qaraydi.

M.Lapustaning tadqiqotlarida «kichik tadbirkorlik – qonunchilikda belgilangan me'yorlarga muvofiq bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi»<sup>24</sup> sifatida qayd etilgan.

S.Fedorovning tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, «kichik biznes subyektlarida operatsion chiqimlarning katta ekanligi va inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi ularni tijorat banklari va mikromoliyalash tashkilotlari tomonidan kreditlash mexanizimlarining rivojlantirishga to'sqinlik qiladi»<sup>25</sup> degan fikrni ilgari suradi. Bu rivojlanayotgan davlatlarda doimiy uchraydigan muammolardan biri sanaladi. Xususan, tadbirkorlik endi rivojlanayotgan vaqtda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun avvalo infratuzilmalarni shakllantirish bilan bog'liq sarf xarajatlari ko'p bo'ladi, shu bilan birga inflyatsiya doimiy mavjud bo'ladigan ko'rsatkichdir. Lekin biz tadqiqotimiz davomida amalga oshirgan ekonometrik tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki mamlakatda tadbirkorlik subyektlariga banklar tomonidan berilgan kreditlar inflyatsiya ko'rsatkichlarini o'sishiga emas. Aksincha uni pasayishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi. Yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning fikrlarini umumlashtirib, quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Kichik biznesning asosiy qatlamini va o'zagini tashkil etuvchi - xususiy tadbirkorlik bu mulkdan foydalanish natijasida doimiy tarzda foyda olishga, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mahsulotlar (xizmatlar, ishlar) sotishga, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mustaqil faoliyatdir. Kichik biznes korxonalarining faoliyati yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan

<sup>23</sup> <https://www.lektsii.com/2-129457.html> A.B.Бусыгин. Предпринимательство.М.: «ИНФРА-М», 1997, с.46-49.

<sup>24</sup> Lapusta M.G., Small business: Textbook. - M: INFRA-M, 2008. - p. 567.

<sup>25</sup> Федоров С.Л (2014). Микрокредитование как инструмент поддержки экономической активности сельского населения // Деньги и кредит. – Москва,. – №1. – 576

o'z tavakkalchiligi asosida amalga oshiriladi va bu shaxslar qonunda belgilangan tartibda ushbu ish uchun ro'yxatga olinadi va foyda olish maqsadida mulkchilikning barcha shaklidan, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan tashabbuskorona foydalanish bilan bog'langandir.

Kichik biznes korxonalari faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi muhim masalalardan biri bo'lib moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish, xususan moliyaviy resurslarni jalb etish manbalaridan oqilona foydalanish, investitsion faollikni oshirish, moliyaviy risklarni samarali boshqarish, moliyaviy menejmentning zamonaviy usullarini faoliyatga keng joriy etish hisoblanadi. Mazkur jarayonda moliyaviy boshqaruvning ta'sirchan mexanizmining joriy etilishi orqali kichik biznes korxonalari moliyaviy faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldini olishga qulay imkoniyat yaratiladi.

Moliyaviy menejmentga asoslangan tahlil usullari kichik biznes subyektlarining boshqaruv tizimida eng asosiy vositalardan biri sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, bu usullar moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va, eng muhimi, qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini puxta tashkil etish nafaqat ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki investitsion faollikni oshirishda ham yetakchi rol o'ynaydi. Shu bois, bu sohada zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ayni paytda kichik biznes uchun dolzarb ehtiyojga aylangan.

Moliyaviy boshqaruvning samarali faoliyati kichik biznesni mustahkamlabgina qolmay, balki uni rivojlanishning yangi bosqichlariga olib chiqadi. Ayniqsa, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ularni rejalashtirish va nazorat qilish orqali korxonalar o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlariga tezroq erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bozor munosabatlari sharoitida raqobat muhitining kuchayib borishi, mahsulotlar hayotiylik davri keskin qisqarishi, bozor kon'yunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlari tez o'zgarishi jarayonlari bugungi kunda har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni hayotiy zaruriyatga aylantirmoqda. Bu esa ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va samarali boshqarishni talab etmoqda.

Kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyati eng avvalo, amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish, ikkinchidan, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish, uchinchidan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxlarini pasaytirishda ularning iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi.


Jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning innovatsion yo'naltirilganligi kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, mazkur faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish va ularning innovatsion loyihalarini tijoratlashtirishning ilmiy-uslubiy va nazariy asoslarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu jihatdan, respublikamizda kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bugungi kunning muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, uning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan izohlanadi. Innovatsiya yangilik, ixtiro, yangi g'oya, loyiha va takliflar ma'nosini anglatib, texnik va texnologiyalarni yangilari bilan almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga va ta'limga sarflangan mablag'larni anglatadi. Ilg'or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish, mehnatni yangicha tashkil etish kabilarda yangiliklar, ixtirolar va loyihalar, shuningdek, ularning turli sohalar faoliyat doiralarida joriy etilishi va qo'llanilishini nazarda tutadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlari kabi Janubiy Koreya, Malayziya, Tayvan, Singapur, Hindiston, Xitoy va boshqa bir qator davlatlarda ham innovatsion rivojlanish yo'nalishida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Misol uchun, Xitoyda elektrotexnika mahsulotlari, uskunalar va avtomobillar ishlab chiqaruvchi g'arb korxonalari paydo bo'lganidan keyin oradan 35 yil o'tib, shunday korxona va mahsulotlarni mustaqil eksport qiluvchi mahalliy korxonalar vujudga keldi.

Innovatsion rivojlanish modeli jahon iqtisodiyoti yadrosini tashkil etuvchi, jahon xo'jaligining industrial va postindustrial rivojlanish bosqichlarida institutsional-texnolog etalonlar yaratgan rivojlangan mamlakatlar uchun xosdir.

Mustaqillik yillarida kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda. Kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkor o'z mablag'larini harakatga solib, bozorda qanday xavf-xatarga duch kelishi yoki yakuniy natija qanday bo'lishini aniq bilmaydi. Shunday qilib, tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyatning alohida turi bo'lib, uning zahirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, tadbirkorlik g'oyasiga asoslangan, foyda olishga yo'naltirilgan, maqsadga muvofiq faoliyat yotadi. Tadbirkorlik iqtisodiy faollikning alohida turi bo'lib, uning boshlang'ich bosqichi, odatda, fikrlash faoliyati yoki uning natijasi bilan bog'langan bo'ladi, faqat u keyin moddiy shaklni oladi. Tadbirkorlik yangilik kiritish, tovar ishlab chiqarish faoliyatini o'zgartirish yoki korxonani (shu jumladan, kichik korxonani) tashkil qilish sohasida ijodkorlikning mavjudligi bilan ta'riflanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimida ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini tadbiq etishda o'z ifodasini topadi. Shunday ekan, kichik biznes va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan muhim o'rnini kichik biznesning quyidagi muhim xususiyatlari bilan ifodalash mumkin:



### Kichik biznesning muhim xususiyatlari<sup>26</sup>

Yuqorida aytib o'tilganidek, kichik biznesning, hoh u rivojlangan mamlakatlarda bo'lsin, hoh rivojlanayotgan va iqtisodiy o'tish davridagi mamlakatlarda bo'lsin, asosiy xususiyatlaridan biri iqtisodiyotning ushbu sektori doimo davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga ehtiyojmand ekanligi hisoblanadi. Mamlakatimizda ham mustaqillikning ilk yillaridan boshlab hozirgi kunga qadar kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va tartibga solish davlatning muhim funktsiyalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Bizningcha, kichik biznes korxonalari faoliyatida moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etishning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- biznes-reja asosida moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni dastlabki bosqichda aniqlash va moliyalashtirishning samarali usullarini tanlash, so'ng esa kichik biznes subyekti faoliyatining rivojlanishini hisobga olgan holda uning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini rejalashtirish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- kichik biznes subyekting joriy moliyaviy majburiyatlarini bajarishga imkon beruvchi naqd pullar, daromadlar va xarajatlar harakatini nazorat qilishga asoslangan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash (tezkor rejalashtirish va muvofiqlashtirish) vazifasi. Aynan tezkor rejalashtirish va muvofiqlashtirish subyekting likvidligi va to'lovga layoqatligini ta'minlashi lozim;
- moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining tahlili. Bu vazifani bajarishda subyekt aktivlari tarkibining tahlili, kredit siyosatining samaradorligi, tavakkalchiliklar, investitsiyalar tahlili, subyekting dividend sohasidagi strategik vazifalarini ishlab chiqish kabi masalalar muhim ahamiyatga ega;
- kichik biznes korxonalarining moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish. Moliyaviy strategiya jalb etilgan moliyaviy resurslarning subyektda qanday ishlatilishini, davlat pul-kredit siyosati va boshqa tashqi omillarining ta'sirini hisobga olgan yuqori rentabellikka yerishishni

<sup>26</sup> Matn asosida magistrant tomonidan tayyorlandi

ta'minlash masalalarini belgilab beradi.